

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute Pedagogika fakul'teti Oliy matematika kafedrasining 2025 yil 28 fevraldagi o'tkazilgan yig'ilishi

№ 7 - sonli bayonnomasidan

KO'ChIRMA

Qatnashdilar: Oliy matematika kafedrası professor-o'qituvchilari va boshqa kafedra o'qituvchilari jami 16 nafar

1. Kafedra dotsenti M.Sobirovaning 2025 yil 15 fevralda o'tkazgan 2(ikki) soatlik " Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim muassasalari matematikasi kursida funksiya o'qitish metodikasi" ochiq ma'ruzasi muhokamasi to'g'risida.

EShITILDI: Yig'ilishni Oliy matematika kafedrası kata o'qituvchisi Donayev N. kirish so'zi bilan ochib, kafedra dotsenti M.Sobirovaning o'tkazilgan ochiq ma'ruza mashg'ulot darsida qatnashgan barcha professor-o'qituvchilarga o'z minnatdorchiligini bildirdi. Yig'ilish qatnashchilari ochiq ma'ruza dars uchun tayinlangan taqrizchilar va ular tomonidan berilgan tashqi va ichki taqrizlar bilan tanishtirib o'tdi. Ochiq ma'ruza darsda fakul'tetning 3-nafar professor-o'qituvchilari 4-nafar 2-kurs va 9 nafar 1-kurs magistrant talabalar hamda Oltinsoy tumanidagi 34-43-son maktab matematika o'qituvchilari onlayn ishtirok etganligini ta'kidlab o'tdi

dots. A.Davlatbekov so'zi ("Oliy matematika" kafedrası dotsenti): - Matematika o'qitish me'todikasi fanidan "Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim muassasalari matematikasi kursida funksiya o'qitish metodikasi" mavzusidagi 2 (ikki) soatlik ochiq ma'ruza darsining yutuqlari albatta ko'p, o'qituvchining darsga tayyorgarligi ko'rinib turibdi. Darsning yuqori saviyada o'tkazilganini, materialning izchil va tushunarli taqdim etilganini ta'kidladi. Shuningdek, interaktiv usullar, ko'rgazmali vositalar va talabalar faolligining yuqoriligi dars samaradorligini oshirganini qayd etdi. Ushbu materiallarni kafedraning metodik fondga kiritish taklifini berdi. O'tilgan darsni namunali deb baholayman.

34-maktab o'qituvchisi Nasiba Azimova. : Bugun men katta faxr va iftixor bilan shuni aytmoqchimanki, bizning maktabimizda faoliyat yuritayotgan

ustozlar chinakam fidoyilik timsolidir. Ayniqsa, ustozimiz haqida soʻz ketganda, qalbim toʻlqinlanadi. U kishi nafaqat bilimdon, balki mehribon, talabchan, ayni paytda har bir oʻquvchining qalbiga yoʻl topa oladigan inson. Ustozimiz oʻz kasbiga sadoqat bilan xizmat qilib, yosh avlodni komil inson etib tarbiyalash yoʻlida tinimsiz mehnat qilmoqda. Har bir dars – bu nafaqat bilim manbai, balki hayot sabogʻi, tarbiya darsidir. Oʻquvchilar uning saboqlaridan ilhomlanib, ezgulikka intilishadi, oʻz oldilariga katta maqsadlar qoʻyishadi. Shunday mehribon, izlanuvchan va fidoiy ustozimiz borligidan juda faxrlanaman. U kishi har birimiz uchun namunadir – halollikda, intilishda, sabr-toqatda. Biz sizdan oʻrnak olamiz, hurmatli ustoz! Sizga sogʻlik, bardavom kuch-gʻayrat va kelgusi ishlaringizda ulkan zafarlar tilayman!”

Shundan sung magistr talabalarga soʻz berildi. Ular oʻz soʻzlarida Oliy matematika kafedrasi dotsenti M.Sobirova tomonidan Matematika oʻqitish metodikasi fanidan oʻtkazilgan maʼruza mashgʻulot darsi kelgusida ularga oʻrganish uchun namunali dars boʻlganligini aytib utishdi

Shundan soʻng ochiq maʼruza mashgʻulot oʻtgan oʻqituvchi dotsent M.Sobirovaga soʻz berildi. Oʻqituvchi ochiq maʼruza mashgʻulot darsida ishtirok etgan professor-oʻqituvchilarga oʻz minnatdorchiligini bildirdi va muhokamada ishtirok etgan professor-oʻqituvchilar tomonidan bildirilgan fikrlarni keyingi pedagoglik faoliyatida albatta eʼtiborga olishini taʼkidladi. Bundan tashkari xar xaftaning shanba kunida bir oy davomida bimalol hohlovchilar darslarga kelib qatnashishlari mumkinligini aytdi

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib yigʻilish qaror qiladi:

1. Professor-oʻqituvchilar tomonidan koʻrsatib oʻtilgan maʼlumotlar axborot uchun qabul qilinsin.
2. Oliy matematika kafedrasi katta oʻqituvchisi M.R.Sobirovaning oʻtgan ochiq maʼruza darsi namunali deb baholansin.

Yigʻilish raisi:

Kotib:



M.Sobirova

E. Eshtemirov